

0Q KIYIMLILAR QO‘ZG‘OLONI, MUQANNA SHAXSIYATI VA O‘LIMINING QISQACHA TAHLILI

Obodov Sherzod Zayniddin o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo’nalishi
21/2-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mavarounnahrda arablar bosqini va zulmiga qarshi ko‘tarilgan xalq harakati “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni va uning asosiy sabablari ishtirokchilari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tiladi hamda ziddiyatlarga boy bo‘lgan Muqanna shaxsiyati haqida muarrixlar tomonidan berilgan ma’lumotlar qisqacha tahlil qilinib xolisona fikr bildiriladi.

Kalit So’zlar: “Oq kiyimlilar”, Buxoro, Naxshab, Samarkand, Kesh, Bunyod ibn To‘g‘shoda, Jabroil ibn Yahyo, Xusayn ibn Muvoz, Hoshim ibn Hakim, Som, Narshaxiy, Gardiziy, Tabariy, Balamiy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik”, “Baxil ul asror”, Kotib Xorazmiy.

Annotation: the article briefly talks about the participants of the “white-skinned” uprising and its associated causes of the people's movement , which was raised in Mavarounnahr against the Arab invasion and oppression, and gives a brief analysis of the information provided by the conflict-rich Muqanna personality hadiqa muarrikhs and expresses an objective opinion.

Keywords: “ white clothes“, Bukhara, Nakhshab, Samarkand, Kesh, Bunyad ibn Damshada, Gabriel ibn Yahya, Hussein ibn Muvaz, Hashim ibn Hakim, Som, Narshakhi, Gardizi, Tabari, Balami, ” monument left from ancient peoples“, ” Bakhil ul asror“, Secretary Khorezmi.

Arablar Mavarounnahr va Xuroson hududlarini bosib olgan davrlardan boshlab ularga qarshi xalq harakatlar doimiy ko‘tarilib turgan, bunday qo‘zgo‘lonlarning sodir bo‘lishiga asosiy sabablar yetarli edi. Birinchi navbatda mahalliy aholining o‘z erkinligi qo‘lga kiritish bo‘lsa, ikkinchi navbatda arablarning o‘lkada olib borgan siyosatiga qarshi norozilikning kuchayishi asosiy sabab bo‘lgan. Ya’ni arablarning mahalliy aholiga bo‘lgan zulmining oshib borishi, musulmon bo‘lmagan odamlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo‘lishi, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamagan dehqon va hunarmandlarning badaniga tamg‘a bosilishgacha borishi kabi sabablarni keltirishimiz mumkin. Arablarning bunday jabr-u zulmiga qarshi VIII asrning 70-80-yillarida ko‘tarilgan “Oq kiyimlilar” nomi bilan mashhur qo‘zg‘olon edi. Qo‘zg‘olonchilarning bunday nomlanishiga, ularning Abbosiylarga qarama qarshi oq libos kiyib janga kirganligi edi. Qo‘zg‘olon Muqanna qo‘zg‘oloni nomi bilan ham mashhurdir. Bu harakatning boshlanishi 769-yilga, Muqannaning 36 ta muridi bilan Amudaryodan kechib o‘tib Kesh viloyatiga kirib kelishi bilan boshlanadi. Tez orada bu qo‘zg‘olon

keskin tus olib Kesh, Buxoro, Naxshab, Samarqand vohalariga tezlik bilan yoyiladi. Dastavval qo‘zg‘oltonni bostirishga Buxoro hokimi Xusayn ibn Muvoz va Samarqand noibi Jabroil ibn Yahyoning bir necha oylik urinishlari mag‘lubiyat bilan yakunlanadi, lekin son jihatdan ustun bo‘lgan arablar 783-yilda qo‘zg‘olonchilarnig markazi bo‘lgan Som qal’asini egallashi bilan yakunlanadi. Qo‘zg‘olonda aholining yuqori, quyi yani barcha tabaqalari qatnashgan, sovet davri tarixiy adabiyotlarda asosan “musulmonlar oq kiyimlarga qarshi kurashdi” degan jumlalar ishlatalib qo‘zg‘alonchilar qoralanib yoritilgan. Zero qo‘zgolonchilar orasida ham musulmonlarning bo‘lganligi, masalan, Muqannaga katta yordam bergan Bunyod ibn To‘g‘shoda va uning otasi musulmon bo‘lganligini Narshaxiy o‘z asarida ta‘kidlab o‘tadi. Ya’ni qo‘zg‘olonchilar tarkibida musulmonlar soni salmoqli bo‘lgan deyishimiz mumkin. Undan tashqari Samarqandlik taniqli tangashunos D. Konchev tomonidan hozircha yagona nusxada topilgan Muqanna tomonidan zarb qilingan mis tanganing topilishi, unda “Bismillahir rohmanir rohim” yani “Alloh nomi bilan“ so‘zining yozilganligi buning yorqin dalilidir. [1:8]

Qo‘zg‘oloning mag‘lubiyatga uchrash sabablariga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchidan, qo‘zg‘onloning uzoq muddat davom etganligi tufayli aholining holdan toyganligi va qishloq xo‘jaligining payhon qilinishi, aholi o‘rtasida ocharchilikni paydo qilishligi. Ikkinchidan, janglarda bir necha bor mag‘lubiyatga uchragan boy tabaqa vakillarining arablar tomoniga o‘tib ketishi, xususan, Muqannaning ukasi Qabzam va lashkarboshisi Sarjamaning hiyonati buning yorqin dalilidir. Uchinchidan, harakat ishtirokchilarining katta qismini harbiy bilimga ega bo‘lmagan odamlardan iborat ekanligi va arablarning son jihatdan ustunligi qo‘zg‘oloning mag‘lubiyatiga olib keldi. Muqanna shaxsiyati va qo‘zg‘olonia bo‘lgan turlicha qarashlar o‘rta asr tarixiy manbalarida ham o‘z aksini topgan va ko‘plab asarlar yozilgan. Shunday asarlardan Ibroh isimli tarixchining “Ahbori Muqanna” (Muqanna haqida habarlar), Abu Bakir Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida batafsil yoritilgan. Muqannaning asil ismi Hoshim ibn Hakim bo‘lib, Ibn Halikon uning Ato degan laqabi ham mavjudligini ta‘kidlaydi. Turkiy tildagi ota so‘zini shunday nomlagan bo‘lishi ham mumkin. Beruniy va Narshaxiyning ma’lumotlariga qaraganda Hoshim ibn Hakimning bir ko‘zi ko‘r bo‘lgan hamda yuzining xunukligi sababli doim ko‘k niqob taqib yurganligini yozib o‘tadi. Shuning uchun Muqanna (niqobdor) laqabini olgan. Narshaxiynig ma’lumotlarga qaraganda Muqanna taxminan 719-yilda Marv yaqinidagi Koza qishlog‘ida tug‘ilgan. Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida Muqanna va qo‘zg‘aloniga bir necha sahifa, ayrim somoniy hukumdorlarga esa bir sahifa ham ajratmaganligi uning qanday tarixiy ahamiyatga ega ekanagini ko‘rsatadi. Yana bir sharq olamida mashhur tarixchi Abusaid Gardiziyning “Zain ul-axbor” (Xabarlar bezagi) asarida ham Muqannna haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asarda Muqannaning dastlab payg‘ambarlik da‘vosini qilganligi, keyinchalik “menxudoman” deb odamlarni o‘ziga banda bo‘lishga chaqirganligi haqida ma’lumotlar keltirilad. Hudo Odamni yaratib, uning siymosiga

kirganligini, u vafot etgach Nuh suratiga, keyin Ibrohim, undan keyin Muso, so'ngra Muhammad siymosiga kirganligini, shu tariqa Abu Muslim suratiga kiriganligini, uning vafotidan so'ng Hoshim suratiga kirganligi orqali odamlarni o'ziga ishontirganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Abu Rayhon Beruniyning ham “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlilar” asarida tobe aholinig islomni yuzaki qabul qilganligi, ular aslida Muqannanining diniga e'tiqot qilishliklari haqida ta'kidlab o'tiladi. [2:247] Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarida ham Muqanna haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib asosan qo'zg'olonchilarga qarshi kurashgan sarkardakar, jumladan, Jabroil ibn Yahyo, Moaz ibn Muslim, Said al Xarroshiyalar va ularning janglari haqida ma'lumot beradi. XVII asrda yashab ijod qilgan yana bir tarixchi Mahmud ibn Valining “Baxr ul-asror” asarida Muqanna haqida yuqorida ta'kidlab o'tgan tarixchilarnikidan farq qiladigan ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Muqannanining tug'ilgan joyini Hirot viloyatidagi Bog'dis tumani Koriz qishlog'ida tug'ilganligini yozib o'tadi. X asrda yashab ijod qilgan qomusiy alloma Abu Abdulloh Kotib Xorazmiy qalamiga mansub “Mafotih ul-ulum” (Ilmlarning kalitlari) kitobining “Kalom ilmi” bobida islomdagi ellikdan ortiq firqalarning ro'yhati keltirilgan bo'lib, ulardan biri sifatida “Oq kiyimlilar” firqasi ham keltirilgan. Alloma Muqanna shaxsiyatiga deyarli to'xtalib o'tmaydi uni shunchaki islomdagi firqa asoschisi sifatida yozib o'ta di. Yuqoridgi ma'lumotlardan kelib chiqgan holda Muqanna islomdagi ta'limotlarni o'z g'oyalari bilan o'zgartirib yangi yunalishiga asos solgan deyishimiz mumkin.

Muqannanining o'limi ham turli tarixchilar tomonidan turlicha yoritilgan. Narshaxiyning ma'lumotlariga qaraganda qo'zg'alon tugar yili Muqanna o'zining Kesh viloyatidagi Som (yoki Siyom) qalasida arablar tomonida qurshovga olinadi va asirlikga tushmasligi uchun o'zini yonib turgan tandirga tashlab o'ladi deb yoziladi. Gardiziyning yozishicha, Muqanna nochor ahvolda qolgach xotinlarini to'plab zahar tayyorlaydi va ularga jannatni va'da qilib barchasiga zahar ichiradi barchasi shu zahoti jon taslim qiladi. Muqannanining o'zi ham zahar ichadi va sekin jon berar ekan yoronlaridan biriga bo'yniga qilich urishini va jasadini hech kim topa olmasligi uchun olovda kuydurishini buyuradi. Tabariy ham Muqannanining zahar ichib o'lganligini arablar uning boshini jonsiz tanasidan judo qilib, o'sha paytda Halabda bo'lgan xalifa Madhiga jo'natganligini yozib o'tadi. Balamiyning ma'lumotlariga qaraganda Muqanna yuzta xotinini bir joyga to'plab zahar solingan qadah tutqazgan. Yoquta isimli xotini zaharni ichmasdan yoqasiga to'kib o'zini o'lganga solib olgan Muqanna esa g'ulomlarini ham zahar berib o'ldirib, o'zini yoni turgan tandirga tashlab halok bo'lganligini yozib o'tadi. Beruniyning ham Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab “Kuyaman-u, yo'q bo'lib ketaman“ degan gaplari amalga oshmaganligini, arablar uning kuygan tanasini tandirdan topib boshini usha payt Halabda bo'lgan amiral muminiy Madhiga jo'natishadi.[2:247] Mahmud ibn Valining esa Muqanna xotinlarini zaharlab o'ldirib o'zini tezob (kimyoviy kislota) to'ldirilgan xumga tashlab halok bo'lganligini yozib qoldiradi. Qolgan tarixchilar ham Muqannanining turli xil bilimlar bilan birgalida

kimyodan ham xabardor bo'lganligini ta'kidllab o'tganligini hisobga olgan holda Mahmud ibn Valining ham ma'lumoti tarixiy jihatdan haqiqatga zid kelmaydi deyishimiz mumkin. Keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqgan holda Muqanna o'limida Gardiziyning ma'lumotlari qolgan tarixchilarining ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirganni va tarixiy haqiqatga ancha yaqin ekanligini ko'rshimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, VIII asrda arablar jabr-u zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq harakati "Oq kiyimlar qo'zg'aloni" edi. Sharoit shu darajaga yetib keldiki, arablar hatto musulmon bo'lmanan aholidan olinadigan jizya solig'ni xonodondagi barcha tirik jonzdolar boshidan ham olganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Tabiiyki, bunday nohaqliklar mahalliy aholini qo'zg'olonga chorlagan. Bunday vaziyatdan Hoshim inb Hakim unumli foydalanib qoldi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan ma'lumotlardan kelib chiqgan holda Muqannaning islomdagi qonun qoidalarni o'zi targ'ib qilgan mazdak g'oyalari bilan birlashtirib o'zining yolg'onlari orqali mahalliy ahlolini arablarga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Hozirgi kun tarixchilari yuqoridagi o'rta asr tarixchilarining ma'lumotlariga tayanib, Muqannaning firibgarligi, islomga qarshi chiqanligi haqidagi qarshlarini bayon qilishmoqda. Ammo yuqoridagi asarlarning ko'pchiligi islom dini mahalliy aholi o'rtasida ancha ildiz otgan davrida yozilgan. Bu ham albatta asarlarda islomda bo'lmanan shaxslar va uning talqinini buzgan shaxslarni istaymizmi yo'qmi qoralab yozilishi tabiiydir. Nima bo'lgan taqdirda ham Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon arablarning mahalliy aholiga bo'lgan qarashlarini va ular ustidan o'rnatgan tuzumining biroz bo'lsada yengillashtirilishiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulom Karimi. Muqanna-T.: Abu matbuot-konsalt , 2010-B.8.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar-T.: O'zbekiston CCR "Fan" nashriyoti, 1968.-B.247.
3. Abu Bakir Narshaxiy. Buxoro tarixi www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. <https://azon.uz/content/views/muqanna-milliy-qahramonmi\>.